



FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA

[Jild: 03 Nashr: 12 (2024)] ISSN: 2992-8915

www.mudarrisziyo.uz

SHO'RKO'L SUV OMBORINING TEXNIK HOLATI

G'aybulloyev Oybek Ahat o'g'li¹

Savriddinov Elyorbek Samandar o'g'li²

Uzakov Xasan Ilxom o'g'li³

^{1, 2, 3} "TIQXMMI" MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sho'rko'l suv omborining hozirgi holati to'g'risida ma'lumot berilgan. Suvni to'plab, undan kelgusida foydalanishga imkon beradigan inshoot suv ombori bo'ladi. Suv omborlari umumiy ko'rinishi, suvni to'plash shartsharoitlari, to'g'onining qurilishi usullari bo'yicha xilma xildir. Sho'rko'l suv ombori Buxoro viloyatida joylashgan 3 ta suv omborining biri. Suv omboridan suvni yig'ishda va vegetatsiya davrida ekin yerlarni sug'orishda foydalaniladi.

Kalit so'zlar: Suv ombori, irrigatsiya tizimi, vegetatsiya, to'g'on, avankamera, suv chiqargich tunel.

Sho'rko'l suv ombori Buxoro viloyati G'ijduvon tumanida joylashgan. 1977 yilda "Uzgiprovodhoz" instituti tomonidan texnik loyiha tuzilgan va 1978 yilda sobiq SSSR melioratsiya va Suv xo'jaligi vazirligi tomonidan mazkur loyiha tasdiqlangan.

Mazkur loyiha asosida 1978-1982 yillarga "Amu-Buxoro" kanal qurilish tresti tomonidan qurilish ishlari boshlangan. Suv omborining suv hajmini loyiha bo'yicha 394 mln.m³ qilib, qurilishi rejalashtirilgan. "Sho'rko'l" suv ombori Zarafshon daryosi orqali to'ldiriladi. 1984 yilda suv omborida 201,7 mln m³ suv yig'ilgan, bu Navoiy viloyatining Konimex tumanining sug'oriladigan erlarining melorativ holatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Shuning uchun meloratsiya va Suv xo'jaligi vazirligining 1985 yil 18 dekabrda 857-sonli bayonnomasi bilan suv omborida to'planadigan suv hajmi 170 mln. m³ dan oshirmaslik belgilangan. "Sho'rko'l suv" ombori Buxoro viloyatini shimoliy g'arbiy qismida, Navoiy viloyatining Konimex tumani bilan chegarasida joylashgan bo'lib, Amu- Buxoro irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasiga qarashli "Toshrobot-Jilvon" irrigatsiya tizimi boshqarmasi tomonidan ekspluatatsiya qilinadi.

Suv omborining suv olish manbai - Zarafshon daryosi. (Toshrobot gidrouzeli Buxoro viloyati G'ijduvon tumani hududidan) Suv ombori - 3 klass, zilzilaga chidamliligi 6 ballni tashkil qiladi. Plotina uzunligi - 560 metr Sho'rko'l suv ombori - Sho'rko'l suv kirish kanali oqali suv to'ldiriladi. Suv omborining suv olish manbai "Zarafshon" daryosi bo'lib, "Sho'rko'l" suv kirish kanali orqali suv to'ldiriladi. Suv omborga birlashtirilgan maydon 29,0 ming gektar, shundan 28,3ming gektar Shofirkon tumanining "Jilvon" va "Toldi" massivlari va 0,7 ming gektar G'ijduvon tumanining "Qutchi" massiviekin maydonlari hisoblanadi. Suv omborning haqiqatda qurilgan, foydalanishdagi suv hajmi 170,0 mln.m³, o'lik hajmi 17,0 mln.m³, yuzasi 30,5 km², uzunligi 5,5 km, eni 3,5 km, chuqurligi 30,0 metr, urtacha chukirligi 5,7 metr, to'g'on uzunligi 560 metrni, tashkil etadi. Suv omborining kapitalligi III-sinfni, zilzilaga chidamliligi 6 ballni tashkil qiladi. Loyiha bo'yicha suv omborining texnik ko'rsatkichlari quyidagicha bo'lishi belgilangan. 1984 yilda suv omborida 201,7 mln.m³ suv yig'ilgan. Navoiy viloyati Konimex tumani sug'oriladigan yerlarining melorativ holatiga salbiy ta'sir ko'rsatganligi sababli Suv xo'jaligi vazirligining 1985 yil 18 dekabrda 857- sonli bayonnomasi bilan suv omborida to'planadigan suv hajmi 170 mln.m³ dan oshirmaslik belgilangan.

Shundan, hozirgacha o'tgan davr ichida "Sho'rko'l" suv omborining Navoiy viloyati hududidagi ekin yerlari va aholi punktlarini suv omborining salbiy ta'siridan himoyalash maqsadida to'suvchi "Sho'rko'l aylanma" kollektori va bu suvlarni "Og'itma" ko'liga tashlovchi "GD-18" kollektori qurilgan. Suv ombori qurilishini to'xtalishi sabablari to'liq bartaraf qilingan bo'lsada, hozirgacha qurilish ishlari yakuniga yetkazilmaganligi natijasida omborda 170,0 mln.m³ ortiq suv yig'ish imkoni bo'lmayapti. Mazkur suv ombori to'liq ishga tushirilsa qo'shimcha 224,0 mln.m³ suv jamg'arish imkoniyati hisobidan G'ijduvon tumaning "Qutchi" massividagi 3,0 ming gektar va Shofirkon tumaninig "Jilvon" massividagi 1,5 ming gektar hamda "Toldi" massivi 2,0 ming gektar jami: 6,5 ming gektar oborotdan chiqqan yerlarni qayta foydalanishga kiritilishiga erishiladi. Suv ombori tarkibiga tug'on, suv chiqarish inshooti, suv kirish va chiqish kanallari kiradi.



1-rasm. Sho'rko'l suv omborining nasos stansiyasi oldidagi avankamera.

Suv chiqarish inshooti minora shaklida to'g'on yonida qurilgan. Suv chiqarish, suv kirish qismi, bosimli qismi va temir betonli bosimsiz quvur va quduqdan iborat. - suv kirish qismi temir betonli monolit konstruksiyadan iborat bulib, uzunligi 25,5 m, kirish qismida 2 ta yassi avariya zatvorlari bor, o'lchamlari 2,9 x 4,0 m, kirish qismida axlat ushlovchi panjara ham mavjud; - suv kirish qismi bosimli temir-beton quvurga qo'shilib ketadi. Bosimli qismi o'lchamlari 2,9 m x 2,5 m, uzunligi 33,0 metr bo'lgan temir betonli quvurdan iborat; - suv chiqarish minorasining balandligi 22 m, temir betondan yasalgan bo'lib, bosimli temir quvur bilan birlashgan, ulchami 10,5mx10,5m, pastgi qismda zatvorlar xonasi joylashgan bo'lib, unda 2 ta avariya va 2 ta ishchi 2,0x2,5 m o'lchamli zatvorlar mavjud, zatvorlar ko'tarib tushirish mexanizmlari elektrlashtirilgan; - bosimsiz quvur 55 metrni tashkil qiladi; - minora ichidagi suv oqimiga joylashgan birinchi qator zatvorlar avariya zatvorlari bo'lib, ikkinchi qator zatvorlar esa ishchi zatvorlar; - kran-balka 50 tonnali va 3,2 tonnali ko'targich uskunasi mavjud bo'lib, ularni belgilangan nuqtaga keltiriladi. Kran-balkaning yukni ko'tarib tushirish mexanizmi elektrlashtirilgan va u ishchi holatda - risberma trapetsiya shaklida bo'lib, qiyaliklari va o'zani temir betondan iborat, qiyaligi $m=2,0$, o'zanining eni 6,5 metrdan 10 metrgacha o'zgaradi, uzunligi 28 metr, risbermaning oxiri yirik toshlar bilan mustahkamlangan; - suv chiqarish tonnelining uzunligi 45,0 metr, trapetsiya shaklida beton qoplamali, o'zaning kengligi 10 metr, qiyaligi $m=2,0$, chuqurligi 3 metr, suv o'tkazish qobiliyati $35,0 \text{ m}^3/\text{s}$.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Каримов, Ф. Х. and О. А. Гайбуллоев. "A FORMATION OF INTENSIVE GARDENS IN EFFECTIVE WAYS." *Наука и мир* 1.9 (2017): 45-47.
2. Juraev, U. A., O. U. Murodov, and O. G'aybulloyev. "DEVELOPMENT OF IRRIGATION PROCEDURE USING DRIP IRRIGATION TECHNOLOGY OF BUKHARA-102 COTTON VARIETY." *Modern Scientific Research International Scientific Journal* 1.3 (2023): 5-10.
3. Tuxtayeva, Xabiba Toshevna, and Abdusamat Qodir o'g'li Xursandov. "MAKKAJO 'XORI O 'ZBEKISTON-300 NAVINI SIZOT SUVLARI BILAN SUG 'ORISH TEXNOLOGIYASI." *Educational Research in Universal Sciences* 2.17 (2023): 641-647.
4. Avliyoqulov, M. M., O. A. G'aybulloyev, and N. B. Badalov. "BUXORO TUMANI FERMER XO 'JALIKLARIDA G 'ALLA MAYDONLARINI YOMG 'IRLATIB SUG 'ORISH TEXNOLOGIYASINI SAMARADORLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARINI ISHLAB CHIQUISH." *GOLDEN BRAIN* 2.1 (2024): 207-214.
5. Azimova, Go'zal Adizovna. "THE ROLE OF SPECIFIC ASPECTS OF SOIL CAPILLARITY AND POROSITY IN PRACTICE." *Educational Research in Universal Sciences* 3.2 (2024): 448-451.
6. To'xtayeva, X. T. (2024). SUG 'ORILADIGAN YERLARDA BO 'LAYOTGAN DINAMIK JARAYONLARNI EKOLOGIK BAHOLASH. *Results of National Scientific Research International Journal*, 3(5), 101-106.
7. Sattorovich, S. U. "KUZGI BOSHOQLI DON EKINLARIGA RESURS TEJAMKOR SUG 'ORISH TEXNOLOGIYALARINI QO 'LLASHNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI." (2022).
8. Saksonov, U. S. "APPLICATION OF WATER-SAVING TECHNOLOGIES IN WINTER WHEAT CULTIVATION." *INTERNATIONAL CONFERENCES*. Vol. 1. No. 4. 2022.



9. Saksonov U. S. THE IMPORTANCE OF USING INNOVATIVE IRRIGATION TECHNOLOGIES //INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS. – 2022. – T. 1. – №. 2. – С. 125-129.
10. Juraev, A. K., & Saksonov, U. S. EFFECTS OF WINTER WHEAT CULTIVATION USING WATER-SAVING IRRIGATION TECHNOLOGY ON THE WATER TABLE LEVEL AND ITS MINERALIZATION IN NEWLY ADOPTED DESERT ZONE SOILS.
11. Saksonov, U. S., & Kudratov, M. R. EFFECT OF WATER-SAVING IRRIGATION TECHNOLOGY BASED ON USING HYDROGEL POLYMER COMPOUND ON GERMINATION AND PLANT THICKNESS OF WINTER WHEAT.
12. Саксонов, Умиджон. "ГИДРОГЕЛЬ ПОЛИМЕР БИРИКМАСИДАН СУВТЕЖАМКОР ТЕХНОЛОГИЯ СИФАТИДА ҚЎЛЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ." Наука и инновация 2.23 (2024): 20-21.